

# TURLI TIZIMLI TILLARDA “GENDER” KONSEPTINING LEKSIK-SEMANTIK MAYDONI

Umarova Nargizaxon Rustamovna  
Farg’ona davlat universiteti, katta o’qituvchi  
Baxromova Dilnozaxon Erkinjon qizi  
Magistratura Lingvistika: ingliz tili  
Ikkinchi kurs magistranti

## **Annotatsiya**

Mazkur maqolada “gender” tushunchasining o’zbek va ingliz tillarida qiyosiy tahlil masalalari ochib berilgan. Ushbu tadqiqotda gender til madaniyati tushunchasi sifatida ko’rsatilgan va uni ingliz va o’zbek tillaridagi ifoda birliklari materialida gender stereotiplarini shakllantiruvchi asos sifatida tavsiflangan. Bundan tashqari, maqola har ikkala tilning leksik-semantik kategoriyasi haqida ma’lumot beradi va ularni gender kategoriyasi bo’yicha bir-biriga solishtiradi. Bu esa gender tushunchasini ham madaniy, ham lingvistik-grammatik jihatdan o’rganish zarurligini anglatadi.

## **Kalit so'zlar**

Qiyosiylik (komparativlik), jins (gender), morfema, leksema, konsept, frazeologik birikma, paremiologiya, gap, til tizimi.

## **Abstract**

This article reveals the issues of comparative analysis of the concept of "gender" in Uzbek and English languages. In this study, gender is shown as a concept of language culture and it is described as a basis for forming gender stereotypes in the material of expression units in English and Uzbek languages. In addition, the article provides information about the lexical-semantic category of both languages and compares them according to the gender category. This

means that it is necessary to study the concept of gender both culturally and linguistically and grammatically.

### **Keywords**

Comparability, gender, morpheme, lexeme, concept, phraseological combination, paremiology, sentence, language system.

### **Абстрактный**

В данной статье раскрываются вопросы сравнительного анализа концепта «гендер» в узбекском и английском языках. В данном исследовании гендер показан как концепт языковой культуры и описан как основа формирования гендерных стереотипов на материале единиц выражения в английском и узбекском языках. Кроме того, в статье приводится информация о лексико-семантической категории обоих языков и проводится их сравнение по родовой категории. Это означает, что необходимо изучить понятие гендера как в культурном, так и в лингвистическом и грамматическом плане.

### **Ключевые слова**

Сопоставимость, род, морфема, лексема, концепт, фразеологическое сочетание, паремиология, предложение, языковая система.

Iyerarxik aloqada oddiy til birliklari murakkablasha boradi. Fonemaning ma'lum qoidalar asosida birikuvi morfemaning, morfema esa leksemaning hosil bo'lishiga olib keladi. Bu aloqa ma'lum darajada tarixiylik mezoniga ega, ya'ni taraqqiyot jarayonida til tizimidagi fonema, morfema, leksema biri ikkinchisiga o'tishi mumkin. Eng kichik grammatik birlik morfema bo'lib, morfemalardan so'zlar yasaladi, so'zlar so'z birikmalari va gaplar qurilishida qatnashadi. Gapdan katta birliklar ham mavjud: murakkab sintaktik butunlik, abzas va matn. Til tizimi til birliklarining bir butunligidan iboratdir.

Tilning tuzilishi tomoni ham bor. Til tuzilishini til tizimi va til meʼyoridan farqlash lozim. Til tuzilishi muayyan davrda qoʻllanayotgan real tizimlardir. Til tuzilishi tildagi koʻpqirrali unsurlarning bir butunlik doirasidagi birligidir. Til tuzilishida til tizimidagi imkoniyatlar amalga oshadi. Masalan, oʻzbek tilining tuzilishi bu tildagi mavjud fonema, morfema, sintaktik qurilmalar yigʻindisi va ushbu vositalarning oʻzaro munosabatidan iboratdir.

Til tuzilishi har qanday tilning asosi boʻlib, u nutqda turli darajada yuzaga chiqadi, namoyon boʻladi. Konkret nutqiy jarayonlarda aniq namoyon buluvchi hodisa tuzilishdir. Til tuzilishi konkret til doirasida olib qaralsa, bu til sathlarida turli darajadagi lisoniy vositalarni bir butunlikka birlashtirib turuvchi oʻqdir. Til qurilishi turli tillarning oʻzaro farqlanishini belgilovchi va xarakterlovchi hodisadir. Tizim har bir til uchun oʻziga xos boʻlsa, til qurilishi konkret til doirasida oʻzgarib, turlanib turuvchi xususiyatga egadir. Masalan, oʻzbek tili arab, ingliz tilidan oʻz tuzilishiga koʻra farqlanadi.

Til tuzilishi oʻz mohiyatiga koʻra, aslida oliy darajadagi umumlashtirish, mavhumlash (abstraksiya) natijasidir. Meʼyor til tuzilishiga nisbatan quyi darajadagi mavhumlashdir. Til tuzilishi tizim va meʼyorga nisbatan olinganda oliy darajada shakllanish natijasidir. Shu tufayli ham til tuzilishi har qanday tilning asosini tashkil etadi.

Turli tizimli tillarda gender konseptining leksik-semantik jihati esa quyidagicha taʼriflanadi:

Gender konsepti (yoki konseptual semantikasi) tilda barcha muloqot olib boruvchilar konseptosferasida mavjud boʻlgan mental birlik boʻlib, universal tabiatga ega, chunki u obyektiv borliqni inʼikos qilishda vaziyatga koʻra gender konseptual semantikasi bilan bogʻliq barcha bilimlarni verbal va noverbal vositalar, yaʼni verbalizatorlar orqali voqelantirilishini taqozo etadigan, shu bois kommunikativ ehtiyoj nuqtai nazardan olinganda oʻziga xos ravishda freymlashgan (qoliplashgan) tarkibga ega boʻlgan muhim konseptual hodisa boʻlib, u tillarda quyidagi verbal va noverbal(paralingvistik) vositalar orqali voqelantirilishi mumkin:

1) Morfemalar (*jins: jinsdosh, jinsiy, jinsiyat, jinsli, jinssizlik*)

*Gender: genderism*

2) Leksemalar (*jins: tur, nav, xil, ijtimoiy guruh, tabaqa, mineral*)

Gender: sex, masculinity, femininity, sexuality, intersex, grammatical gender, gender identity, male, feminine, transgender, feminism, sexual, sexology, gender role, discrimination, gender studies, ethnicity, hijra, androgyny, androgynous, women, homosexuality, masculine

3) Sintaksemalar. 1) *soʻz birikmasi (togʻ jinsi, jinsiy farq, jinsiy tafovut, jinsiy aloqa, adabiy jins, ayol jinsi, erkak jinsi, urgʻochi jins)*

*bi-gender, gender confirmation surgery, gender dysphoria, gender identity, gender nonconforming, gender reassignment, gender reassignment surgery, gender transition, grammatical gender, use/play the race/gender card, gender bender, gender fluid, gender identity disorder, gender expression, gender-specific, gender-affirming surgery, gender-neutral, gender-confirming surgery, gender affirmation surgery.*

2) *Gap. Oʻzbek tilida:*

*— Ota, bu singlim,— tabassum bilan dedi Yoʻlchi. — Boynikida yashashini maʼqul koʻrmadim. — Yaxshi qilibsiz: Kabutar bo kabutar, jins bo jins. Toʻgʻri, ular qarindoshing. Lekin ular seni oʻz jinsiga qoʻshmaydi. Ular pul jinsidan. (Oybek, Tanlangan asarlar)*

Ingliz tilida: *I [think](#) all genders are [able](#) to [care](#) for [children equally](#).*

4) *Frazeologik yoki paremiologik birliklar, (frazeologizmlar)*

a) frazeologik birliklar. Masalan: *yuqori jins vakillari, quyi jins vakillari, jinsiga tortmoq, qarama-qarshi jins vakillari*

Ingliz tilida: *gender bias, gender gap, same-gender, gender bender, gender biased adjective, at gender bias, gender binary, gender-blind* kabilar.

Demak, har ikki tilda ham gender konseptining o'xshash va farqli jihatlari mavjud bo'lib, ular leksik-semantik maydonning turli jihatlarida taqqoslanishi mumkin.

Shuningdek, gender konseptining so'z hosil qilish asosi ham turlicha bo'lib, yuqorida ushbu hodisa aniq misollar va faktlar bilan tahlil qilindi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.To'xtasinov "Badiiy matnlardagi sleng so'zlarning lingvomadaniy va gender xususiyatlari ingliz va o'zbek tili materiallari asosida" dissertatsiya PhD. Toshkent 2011.
2. Ergasheva G. "Turli tillar tizimida gender terminologiyasining shakllanishidagi lingvistik va ekstralingvistik omillar" dissertatsiya DS, Toshkent 2018.
3. "The role of gender and language learning strategies in learning English" Oktay Aslan; Turkiya 2009.
4. Macmillan Advanced dictionary, Oxford 2007.
5. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE
6. LANGUAGE. Journal of Central Asian Social Studies, 2(04), 1-10